



The GE-UZ

Geoinformatika: O'zbekistonda barqaror rivojlanishga erishishni ta'minlash www.geuz.eu & www.geoinformatics.uz

Bo'limlar

- ❖ Toshkentda seminar
- ❖ Fanlar mavzularining tavsifi
- ❖ Kelgusidagi seminarlar
- ❖ Hamkorlar bilan tanishtirish
 - G'arbiy Vengriya Universiteti,
 - Salsburg Paris-Lodron Universiteti
- ❖ Biz bilan bog'lanish?

Toshkentda seminar

2013 yilning 17-21 iyun kunlari Toshkentda GE-UZ loyihasi hamkorlari bilan birgalikdagi seminar muvaffaqiyatli o'tkazildi. Seminarining asosiy maqsadi O'zbekistondagi hamkor universitetlar (TIMI, TAQI, O'zMU, QDU)da yaratilayotgan yangi magistratura dasturi uchun fanlarni belgilab olish va ushbu fanlarning boblarini tavsiflashdan iborat edi.

Dushanba kuni professor Bela Markus seminarining asosiy maqsadi bilan tanishtirdi, keyin esa Mike McGibbon terminologiya va o'quv materiallari (o'quv dasturi va o'quv qo'llanmalari)ni yaratish bo'yicha so'zga chiqdi. Yig'ilishning keyingi qismida Josef Strobl Ta'lim jarayonini boshqarish tizimi (Moodle) va falsafasi bilan tanishtirib o'tdi hamda Bernhard Bretz 30 nafar o'qituvchi uchun tashkil etilayotgan Geoinformatika kursining raqamli ma'lumotlarni saqlash va yuritish maqsadida Moodledan foydalanish bo'limi bo'yicha o'tkaziladigan trening to'g'risida ma'lumot berdi.

Ushbu kurs Loyiha uchun o'rnatilgan Moodle platformasi haqida boshlang'ich tushuncha berish va platformani boshqarish bo'yicha amaliy mashqlar bajarishga qaratilgan. Seshanba kuni Odil Akbarov magistratura dasturini tasdiqlash jarayoni va asbob-uskunalar xarid qilish masalalarini qisqacha tahlil qildi. Huaan Fan ushbu mavzuni davom ettirgan holda, loyiha biznes rejasining boshlang'ich varianti va loyiha yakunidan keyingi imkoniyatlar haqida ma'lumot berdi.

Kunning ikkinchi yarmida seminar qatnashchilari 4 ta guruhga bo'linib, seminar davomida birgalikda ishladilar va ishlarining natija hamda samaralari haqida har kuni taqdimot qildilar.

Qatnashchilar quyidagi guruhlarga bo'lindilar:

Moodle Masterlari – bu guruhning maqsadi Moodle platformasidagi foydalanuvchi va kurslarni boshqarish hamda o'qituvchi va talabalarning Moodle to'g'risidagi savollariga javob berish uchun har bir hamkor universitetdan 1-2 tadan javobgar shaxslarni tayyorlashdan iborat edi. Seminarining birinchi kunida foydalanuvchilarni boshqarish haqida amaliy mashqlar bajarildi.

Ushbu kursni Paris-Lodron universiteti mutaxassisi Bernhard Bretz boshqardi.

Ko'rsatmalar – ushbu guruh qatnashchilari o'zbek tilida o'quv qo'llanma yozishga mas'ul mualliflar va yaratuvchilardan iborat edi. Ularning vazifasi o'zlari boshqarayotgan fanlarning mazmuni va boblarini tanishtirish edi. Ko'zlanayotgan fanning maqsadi, kalit so'zlar, kutilayotgan natijalar, fan tarkibi, adabiyotlar, baholash va topshiriq, o'z-o'zini baholash savollaridan tashkil topgan bo'lib, seminar davomida har bir fan bo'yicha ushbu tuzilmalar hamkorlar tomonidan qabul qilindi. Bu asosida boblarning tavsifini aniqlash uchun namunaviy qo'llanma yaratildi. Bu guruhga Mike McGibbon va Fakhar Khalid boshchilik qildi.

Asbob uskuna/dasturiy ta'minot – Bu guruhni Odil Akbarov boshqardi va ular hamkor universitetlarning asbob-uskunalariga bo'lgan zaruriyat va talablarini muhokama qildilar.

Biznes reja – bu guruh biznes reja ustida ishladi va guruhni Huaan Fan boshqardi.

Boblarning tavsifi

Qatnashchilar quyidagi fanlar tarkibini yaratishga kelishib oldilar va ular boblarning tafsilotlaridan iborat namuna yaratdilar. Mazkur shablon loyihaning rasmiy veb-saytida hamkorlar uchun taqdim etilgan.

1. Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari
2. Masofadan zondlash
3. Fazoviy ma'lumotlar modellari
4. Ma'lumotlarni olish va integratsiyalash
5. Geoma'lumotlar bazasi va arxitekturasida
6. Kartografiya va Geovizualizatsiya
7. Fazoviy tahlillar
8. Loyihani tashkil etish va boshqarish

Kelgusidagi seminarlar

Kuzgi semestrda Ma'lumot olish va Geoma'lumotlarni boshqarish mavzusida Vengriyada hamda Fazoviy tahlillar mavzusida Avstriyada seminar bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

Hamkorlarni tanishtirish – G'arbiy Vengriya Universiteti

G'arbiy Vengriya universiteti Vengriyadagi eng katta universitetlardan biri bo'lib, o'rmonchilik, iqtisodiyot, pedagogika va qishloq xo'jaligi kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan 10 ta fakultetdan tashkil topgan. Geoinformatika fakultetida geodeziya, kartografiya, aerosiyomka, sun'iy yo'ldosh tasvirlarini qayta ishlash, geografik axborot tizimlari, yer resurslarini boshqarish, fazoviy rejalashtirish va rivojlantirish kabi fanlar o'tiladi.

Ushbu oliy o'quv yurti geodeziya va kartografiya sohasida amaliy bilimlarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirib beruvchi Vengriyadagi yagona universitet hisoblanadi.



Fakultetning tarixi Vengriyaning geodeziya sohasiga oid tarixi bilan chambarchas bog'liq. Geodeziya sohasi bo'yicha oliy ta'lim 1962 yilda Sekeshfehervar shahrida boshlangan va mazkur fakultetda 1972 yildan boshlab geodeziya, 1975 yildan boshlab esa, yer resurslarini boshqarish dasturlari o'tib kelinmoqda. 2001 yildan boshlab mulk va yerlarni ro'yxatga olishni boshqarish bo'yicha mutaxassisliklar tashkil etilgan bo'lib, yer va mulkka oid huquqiy, texnik va axborot texnologiyalari fanlari bo'yicha chuqur bilimlar berib kelinmoqda.

2005-2006 o'quv yilida geoinformatika, yer resurslarini boshqarish va yerlarni ro'yxatga olish bakalavr yo'nalishlariga Boloniya jarayoni tadbiiq etildi. Ushbu darajani olgan muhandislar ishlab chiqarishda o'zlarining geodeziya, geoinformatika, hududiy rivojlantirish, yerlarni maqbullashtirish va yer huquqiga oid zamonaviy bilimlaridan foydalana oladilar. 2006-2007 yilda ko'chmas mulk va yerlarni ro'yxatga olishni boshqarish mutaxassisligi Davlat Ma'muriy Boshqaruvi tomonidan Ko'chmas mulkni boshqarish bakalavriatura yo'nalishiga o'zgartirildi.

Fakultetning infrastrukturasi va professor-o'qituvchilari, uning milliy va xalqaro darajadagi mavqe'si mehnat bozori talablariga javob beradigan diplom va magistraturaga kirish huquqini kafolatlaydi. 2009 yilda fakultetda Yer resurslarini boshqarish bo'yicha yangi magistratura mutaxassisligi ochildi. G'arbiy Vengriya universiteti loyihani muvofiqlashtiruvchi institut bo'lib, loyihaning kundalik boshqaruvini olib borish va uning faoliyati haqida Yevropa komissiyasiga hisobot topshirishga mas'ul hisoblanadi. Universitet loyihani moliyaviy va ma'muriy boshqarish uchun professional infrastrukturaga ega.

G'arbiy Vengriya universiteti quyidagi ish paketlarini boshqaradi:

- Loyihani boshqarish (WP1),
- O'quv rejalarini yaratish (WP2),
- O'qituvchilar malakasini oshirish (WP4)

Shuningdek, universitet boshqa ish paketlarini amalga oshirishda hamkorlarga yordam beradi, ayniqsa o'quv rejalarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Universitet "Ma'lumot olish va

Geoma'lumotlar bazasini boshqarish" mavzusida trening kurslari tashkil etadi.

Hamkorlarni tanishtirish – Zalsburg Paris-Lodron universiteti

Zalsburg universitetining Geoinformatika markazi xalqaro, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar bilan hamkorlik loyihalarida boy tajribaga ega. Universitet 5-ish paketi – ta'lim muhitini yaratish va 6-ish paketi – ta'lim tarmog'ini yaratishni amalga oshirishda boshchilik qiladi. TEMPUS loyihalarini amalga oshirishda juda faol va bu ikki ish paketini amalga oshirishda yetarli tajribaga ega. Universitet boshqa barcha ish paketlarini amalga oshirishda hamkorlarga ko'maklashadi va 4 ish paketi doirasida "Fazoviy tahlillar" mavzusida trening kurslari tashkil qiladi.

Universitet asosiy e'tiborni kadrlarning ushbu sohadagi bilimlarini oshirish va zamonaviy o'quv rejalarini yaratishni o'z ichiga olgan Geoinformatika fani va uning qo'llanilishini turli sohalarga tadbiiq etishni rivojlantirishga qaratgan. Geoinformatika (Z_GIS) markazi "Geoinformatikani tadbiiq etish" magistratura mutaxassisligidan tashqari, turli soha vakillaridan tashkil topgan talabalarni o'ziga birlashtira olgan UNIGIS dasturiga ham boshchilik qiladi. 2008 yilda mazkur markaz Yevrosiyo-Tinch okeani Ittifoqi www.eurasiapacific.net tashkiloti ko'magida va avvalgi TEMPUS loyihalari bilan hamkorlikda Bishkekda Qirg'iz arxitektura va transport universitetida qo'shma markaz tashkil qildi. Z_GIS markazi tadqiqotchilar va mutaxassislarni birlashtirish maqsadida har yili bo'ladigan Zalsburgdagi Geoinformatika forumi (ingliz tilida) bilan bir vaqtda Geoinformatikani tadbiiq etish simpoziumini tashkil etadi.

Universitetning katta tajribasidan foydalangan holda unga "Ta'lim muhitini yaratish" 5-ishpaketini va "Ta'lim tarmog'ini yaratish" 6-ish paketini boshqarish vazifasi berilgan.

Undan tashqari, loyihaning kelgusi strategiyasini amalga oshirishda, ayniqsa kadrlar tayyorlashda bu universitetning tajribasidan foydalaniladi.



GE-UZ loyihasi haqida ko'proq ma'lumot olish yoki fikr-mulohazalar bildirish uchun loyiha a'zolariga quyidagi manzillar orqali murojaat qilishingiz mumkin:

Prof Dr. Bela Markus,

GE-UZ TEMPUS loyihasi menejeri

Geoinformatika fakulteti,

G'arbiy Vengriya Universiteti

Pirosalma u 1-3. Székesfehérvár H-8000

Email: ge-uz@geo.info.hu

yoki

Odil Akbarov

GE-UZ TEMPUS loyihasi milliy koordinatori

Toshkent Irrigatsiya va Melioratsiya Instituti

Qori Niyoziy 39, Toshkent UZ-100000

Email: odilxon@yahoo.com